

G'ARBIY TURK XOQONLIGI TARKIBIDAGI VASSALLAR VA ULARNI BOSHQARISH USULLARI

O'rolov Asilbek Absalom o'g'li
JDPU Tarix yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Buyuk Turk xoqonligining tarkibiy bir qismi bo'lgan G'arbiy Turk xoqonligi tarkibidagi vassallar haqida so'z yuritiladi. Bundan tashqari vassallarni boshqarish usullari haqida ham qisqacha yoritib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *G'arbiy Turk xoqonligi, Sharqiy Turkiston, Buyuk Turk xoqonligi, O'rxun vodiysi, Yettisuv, Sug'd, Janubiy Oltoy, Tukyue, Sosoniylar, Vizantiya, Markaziy Osiyo, ashina, yabg'u, shad, tegin, tudunlar, eltabar.*

Аннотация: *В данной статье речь пойдет о вассалах в составе Западно-Тюркского каганата, который является составной частью Великого Тюркского каганата. Также кратко описаны способы управления вассалами.*

Ключевые слова: *Западно-Тюркский каганат, Восточный Туркестан, Великий Тюркский каганат, Орхонская Долина, Семисвет, Согд, Южный Алтай, Тукюэ, Сасаниды, Византия, Центральная Азия, Ашина, Ябгу, Шад, Тегин, тудуны, Эльтабар.*

Annotation: *this article will talk about vassals within the western Turkish Khaganate, which is a constituent part of the Great Turkish Khaganate. It is also briefly covered about the methods of managing vassals.*

Keywords: *Western Turkish Khaganate, Eastern Turkestan, Great Turkish Khaganate, Orkhun Valley, Yettisuv, Sughd, Southern Altai, Tukyue, Sassanid, Byzantine, Central Asian, ashina, yabgü, shad, tegin, tudunlar, eltabar*

Ma'lumki, G'arbiy Turk xoqonligi bir necha o'nlab qabila va urug'lar boshqaruvlarini va 20 dan ortiq voha hukmdorliklarini o'z tarkibiga olgan bo'lib, imperiya darajasidagi ulkan davlat hisoblanardi. Hukmronligining eng yuqori cho'qqisiga chiqqan paytda G'arbiy Turk xoqonligi tarkibida bo'lgan hududlarning ijtimoiy-siyosiy holati qanday bo'lganligi va hududiy-geografik jihatdan qanday regionlardan tashkil topganligi masalasiga nazar soladigan bo'lsak, bu borada G'aybulla Boboyorovning quyidagi keltirib o'tgan ma'lumotlariga alohida to'xtalib o'tsak.

a) **xoqonlikning markaziy hududlari va unga yaqin joylarda yashovchi, ko'chmanchi hayot hukmron bo'lgan dasht, tog' va tog' oldi hududlari:** Shimoliy Jung'oriya, Sirdaryoning o'rta havzasi va Oltoyning g'arbida yashovchi vassal ko'chmanchi qabilalar. Bu guruhga ko'chmanchilik an'analari ustuvor bo'lgan Volga - Ural bo'ylari, Shimoliy Kavkaz va Qora dengiz bo'yi hududlari ham kiradi.

b) **o'troq turmush tarzi ustuvor bo'lgan vohalar:** Sharqiy Turkiston, Amudaryo - Sirdaryo oralig'i, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston, Shimoli-sharqiy Eron (Xuroson).

G'arbiy xoqonlik tarkibidagi o'troq vohalar quyidagi o'lkalarda o'rin olgan:

1) **Sharqiy Turkiston:** *Xami (Qumul), Gaochan (Turfon), Ansi (Qorashahr), Guyszi (Kucha), Qoshg'ar, Xo'tar;*

2) **Amudaryo va Sirdaryo oralig'i:** *Choch, Farg'ona, Ustrushona, Sug'd* (Samarqand, Maymurg', Kushoniya, Panj, Kesh, Naxshab va b.), *Buxoro, Tohariston, Xorazm*;

3) **Shimoliy Hindiston va Afg'oniston:** *Gandxara, Kashmir, Kobiliston, Zobuliston*;

4) **Shimoli-sharqiy Eron - Janubiy Turkmaniston (Xuroson):** *Dehiston, Gurgon, Marv*.

Shartli ravishda keltirilgan ushbu ma'lumotlardan xoqonlik tarkibiga kirgan voha hukmdorliklarining soni 20 ga yaqin bo'lgani a'yon bo'ladi. Voha hukmdorliklarning xoqonlik tarkibiga kiritilishi ma'lum siyosiy jarayonlar doirasida kechgan. Ma'lumki, Janubiy Oltoy tog'ining etaklarida yashovchi turkiy *ashina* qabilasi o'z xo'jayinlari bo'lgan Juan-juanlarga zarba berib, 552-yilda Buyuk Turk xoqonligiga asos solishadi. Qisqa muddat ichida xoqonlik Uzoq Sharqdan to Shimoliy Qora dengiz sohillarigacha, Janubiy Sibirdan to Shimoliy Hindistongacha bo'lgan ulkan hududni birlashtirgan yirik saltanatga aylanadi. Davlat tashkil topgandan so'ng faoliyatining dastlabki o'n yillaridayoq xoqonlik o'z hududini qadimgi markaziy osiyolik ko'chmanchilar an'anasiga muvofiq ravishda ikki qismga bo'lib boshqaradi. Birinchisi, markazi O'rxun vodiysi (Mo'g'uliston) bo'lmish, Janubiy Sibir, Uzoq sharq, Shimoliy Xitoy va Oltoy tog'larining sharqidagi hududlarni birlashtirgan **Sharqiy qism** (qanot), ikkinchisi esa markazi Yettisuv bo'lgan, Oltoy tog'ining g'arbidan to Shimoliy Qora dengizgacha, Volga - Ural bo'ylaridan to Shimoliy Hindistongacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgan **G'arbiy qism** (qanot)dan iborat edi. Keyinchalik, Turk xoqonligining asosiy boshqaruvi vazifasi Sharqiy qanotga o'tganidan so'ng, unga bo'ysunuvchi G'arbiy qanot zamirida G'arbiy Turk xoqonligi shakllanadi. VIII asr o'rtalarigacha bo'lgan faoliyati davomida Sharqiy xoqonlikdan farqli ravishda, Yettisuv va uning atrofidagi ko'chmanchi qabilalarni birlashtirgan holda, asosan, Sharqiy Turkiston va Amudaryo - Sirdaryo oralig'idagi voha hukmdorliklarini, qisman Xuroson va Shimoliy Hindistondagi bir qancha voha hukmdorliklarini o'z ichiga olgan edi. Xoqonlik ushbu hududlar ustidan o'ziga xos boshqaruv usul va vositalarini ishlab chiqqan davlat uyushmasi hisoblanardi.

Xoqonlik o'z vassallarini, ayniqsa, voha hukmdorliklarini qanday boshqarganligi masalasiga nazar soladigan bo'lsak, avvalo ularning qachon vassalga aylantirilganligiga qisqacha to'xtalib o'tsak. Bu borada asosan, xitoy manbalaridan, qisman boshqa (vizantiya, arab, fors) manbalarda qayd etilishicha, Turk xoqonligi 550-yillarning o'rtalarida Sharqiy Turkistondagi voha hukmdorliklarini, 560-yillarda Amudaryo - Sirdaryo oralig'idagi Toharistongacha bo'lgan hududlarni (Choch, Farg'ona, Ustrushona, Sug'd, Buxoro, Xorazm), 580-yillarda esa Tohariston, Kobuliston, Xuroson hududidagi hukmdorliklarni o'z tarkibiga qo'shib oladi. Bu hududlarning xoqonlik tomonidan egallanishi mazkur manbalarda batafsilroq yoritilmagan. Bu haqdagi ma'lumotlar qisqacha jumalar orqali keltirib o'tilgan. Xitoy manbalarida Turk xoqonligining dastlabki faoliyati yoritilganda *Tukyue* (Turk)lar *Ida* (Eftalitlar) davlatini mag'lub etganligi qisqacha qayd etilgan va xoqonlik ushbu davlat tarkibidagi g'arbiy o'lkalarni o'z tarkibiga qo'shib olganligi keltirilib o'tilgan¹. „Beyshi“, „Suyshu“ kabi yilnomalarda ham G'arbiy o'lkalar uchun ajratilgan boblarda har bir voha hukmdorliklari alohida tavsiflanganda ham ularning *Tukyuelarga* qaram ekanligi qisqacha bayon etiladi.

¹ Бичурин Н. Я. Собрание сведений... I. - С. 229.

Vizantiya manbalarida esa 568-yilda Vizantiyaga tashrif buyurgan xoqonlik elchilarining eftalitlar to'liq tor-mor etilganligi va eftalitlar qo'l ostidagi hududlarning xoqonlik tarkibiga o'tganini ta'kidlab o'tganliklari qayd etilgan². Arab manbalarida esa Dinovariy Sosoniylar va xoqonlik Xaytallar (Eftalitlar) davlatini mag'lubiyatga uchratib, unga tegishli hududlarni taqsimlagani, ya'ni, turklar Choch, Farg'ona, Sug'd va Buxoroni qo'lga kiritgani, Sosoniylar esa Tohariston hamda Kobulistonni o'z qo'lga olganligi qayd etilgan³. Jumladan, arab manbalarida Samarqand hukmdori G'urak (710-738) arablar bilan uchrashganda o'zini xoqonning qullaridan va chokar (xos askar)laridan biri sifatida ta'riflagani qayd etiladi⁴.

Xoqonlikning voha hukmdorliklarini o'z vassallariga aylantirishi va vohalar boshqaruvchilari o'zlarini xoqonlik qanchalik darajada vassal deb bilganliklari bilan bog'liq voqealar manbalarda juda qisqacha keltirib o'tilgan. Ya'ni ushbu hukmdorliklar xoqonlikning vassaliga aylanish jarayoniga mazkur manbalarning birortasida atroflicha to'xtalib o'tilmagan.

Endi xoqonlikning vassal voha hukmdorliklarini qay tarzda, qanday usul va vositalar orqali boshqargani xususida so'z yuritsak. Avvalo shu ma'lumotni qayd etib o'tishimiz kerakki, xoqonlikdan avval ham Markaziy Osiyo mintaqasida Skif - Sak, Yuechji, Xun, Qang', Usun, Kushon, Xioniylar, Kidariylar, Eftalitlar, Juan-juanlar kabi davlat uyushmalari ming yildan oshiq vaqt mobaynida navbatma-navbat hukm surganligini e'tirof etishimiz lozim. Ushbu davlat uyushmalarining aksariyati dastlab ko'chmanchi muhitda yashab, keyinchalik Markaziy Osiyoning o'troq vohalari ustidan ham o'z hukmdorliklarini o'rnatganliklari ma'lum. Shu jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan voha hukmdorliklari bilan bog'liq shu narsani aytib o'tish joizki, ularning aksariyati biror daryo havzasida joylashgan bo'lib, o'z geografik joylashuvlari biror vodiy, voha yoki boshqa tabiiy obyekt asosida shakllangan. Shuningdek, Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Tarim, Murg'ob, Kobul kabi daryolar havzalari va Hisor, Hindikush, Pomir, Tyanshan (Tangritog'), Kopetdog' kabi tog' tizmalaridagi vodiy va daralar ushbu voha davlatlari uchun tabiiy chegara hisoblanardi.

Xoqonlik vassallarni qay yo'sinda boshqarganligi xoqonlik tarixining eng muammoli masalalaridan biri hisoblanadi. Bu masalada tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan fikrlarga nazar soladigan bo'lsak, X. I. Erkoch tomonidan bildirilgan fikrlar alohida diqqatga sazovordir. Uning fikrlariga ko'ra, xoqonlik tarkibida bo'lgan qabila va urug'lar markaz tomonidan tayinlangan noiblar yoki „ulug' xoqon“ ga bo'ysunuvchi raislar (boshqaruvchilar) tomonidan boshqarilgan⁵. Uning bu xususdagi fikrlarini davom ettiradigan bo'lsak, tadqiqotchi xoqonlik o'z vassallar boshqaruvida 552-yildan to 744-yilgacha bo'lgan davr oralig'ida standart va uzluksiz bir boshqaruv tizimini yo'lga qo'ymanligini ta'kidlab o'tadi. Lekin ayrim vaqtlarda xoqonlik ba'zi qabila va o'lkalarni *yabg'u* va *shad* unvonli amaldorlar vositasida boshqarganligini va ular esa Ashina xonadoniga mansub vakillar ekanligini qayd etadi. Shuningdek, ba'zan davlatga qaram bo'lgan o'lkalarning boshqarilishida *shad* unvonli vakillar ko'proq o'rin egallagan bo'lsa, gohida tobe o'lkalardan bir qismining boshqaruviga „kichik xoqon“ lar tayinlanar va ayrim hollarda esa ba'zi xalqlarning boshqaruviga *shad*, *tegin* va *tudunlar* yuborilar edi. Tadqiqotchi

2 Феофилакт Симокатта. История... - С. 624; Комар А. Наследие тюркских каганатов... - С. 100-101.

3 Зиё А. Узбек давлатчилиги тарихи... - Б. 81; Равшанов П. Кашкадарё тарихи. - Т.: Фан, 1995. - Б. 201.

4 История ат-Табари... - С. 225.

5 Erkoç N. İ. Eski Türklerde Devlet Teşkilatı... - S. 226.

yana shu ma'lumotlarni ta'kidlab o'tadiki, ba'zi paytlarda „kichik xoqon“ lardan biri faqat bitta qabilani boshqarib turgan vaqtda boshqa bir „kichik xoqon“ esa bir nechta qabilalarni boshqarardi⁶. Darhaqiqat, u *eltabar*, *cho'r*, *erkin*, *tudun* hamda *tuyg'un* kabi unvonga ega bo'lgan vakillar saltanatga qaram o'lkalarga noib etib tayinlanishi va ular ushbu o'lkalarni „ulug' xoqon“ nomidan boshqarganligini ham ta'kidlab o'tadi. *Tudunlar* gohida markazning to'g'ridan-to'g'ri vakili sifatida tobe o'lkalarni boshqarardi yoki markaz tomonidan berilgan vakolat bo'yicha faqat soliq va moliyaviy ishlarni olib borardi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, asosan ko'kturk budununi (ya'ni „davlat ulusini“. – G'.B.) tashkil etuvchi qabilalar tepasida esa *beg* unvoniga ega bo'lgan boshqaruvchilar turar edi⁷.

Xoqonlik tarkibidagi vassal voqa hukmdorliklari markazga xavf soladigan darajada siyosiy kuchga ega bo'lmagan. Manbalarda ham ayrim kichik xatti-harakatlarni inobatga olmaganda, deyarli ulardan hech biri xoqonlikning ichki siyosatiga qarshi harakatlar olib borganligi xususidagi ma'lumotlar keltirilmagan. Darhaqiqat, xoqonlikning vohalarni o'z tobeligiga kiritgan 560-580-yillardan to 650-yillargacha, taxminan 70-80 yil davomida, hatto undan keyingi 30 yillik (700-yilgacha) Xitoyga qaramlik davrida ham xoqonlik va vassal hududlar orasida iliq munosabatlar davom etganligini turli tildagi manbalar orqali ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, VII asrning 40-yillaridan boshlab to VIII asr boshlarigacha Sharqiy Turkistondagi voqa davlatlarining ayrimlari tobora kuchayib kelayotgan Xitoy xavfining oldini olish maqsadida xoqonlik tomonga intilganliklari, bundan tashqari VII asr oxirlari – VIII asr birinchi yarmi oralig'ida esa Xuroson, Marv, Tohariston va Amudaryoning shimolidagi hududlar – Buxoro va Sug'd (Samarqand, Panj) hukmdorliklarining arablar bosqiniga qarshi kurashda xoqonga murojaat qilganliklari⁸ kabi omillar iqtisodiy hayoti ziroatchilik, hunarmandchilik va savdoga ixtisoslashgan o'troq xalqlarning o'z tinchligini saqlashda xoqonlikning siyosiy kuchlariga muhtoj bo'lganliklarini ko'rsatadi. Binobarin, Markaziy Osiyoning shimoli-sharqiy qismida o'z davlatlarini tashkil etgan ko'chmanchilar ham davlat sifatida yashab qolish uchun o'troq hududlar yetkazib beradigan dehqonchilik va hunarmandchilik mahsulotlariga ehtiyoj edilar. Chunki ular ham o'z aholisining ehtiyojlarini shu yo'l orqali taminlar, harbiy sohadagi muvaffaqiyatlar ham shunga bog'liq edi.

Shuni ham e'tirof etish kerakki, keying yillarda xoqonlik va vassallar boshqaruvi xususida oldingilaridan farqli yondashilgan tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. Bu borada amerikalik tadqiqotchi J. K. Skaff tomonidan ilgari surilgan fikrlar ham diqqatga sazovordir. Uning fikricha, xoqonlik Turkistondagi vohalarni quyidagi 2 usulda boshqargan: 1) bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) boshqaruv; 2) bilvosita boshqaruv. Skaffning fikricha, bevosita boshqarish xoqonlikning hukmdor sulolasiga mansub vakillarning biror voqa boshqaruviiga tayinlanishida namoyon bo'ladi; bunga misol qilib Tohariston, Farg'ona va Chochni olishimiz mumkin. Bunday boshqaruv shakli aniq bir qoida bilan bog'liq bo'lmagan. Skaff xoqonlikning bilvosita boshqaruviini quyidagicha tavsiflaydi: <<bu davrda eng ma'qul usul mahalliy elitaning o'zlariga qarashli o'troq vohalarda avvalgi mavqelarini saqlab qolishlariga ruxsat berilishidir. Mahalliy hukmdorlar o'zining o'troq aholisidan yiqqan soliq va xirojlarni hukmron ko'chmanchilarga

6 Erkoç H. İ. Eski Türklerde Devlet Teşkilatı... – S. 226–227.

7 Erkoç H. İ. Eski Türklerde Devlet Teşkilatı... – S. 227.

8 Сoгдийские документы... II. – С. 80–83.

yetkazib berishga ma'sul vositachi rolini va xizmatini o'z zimmalariga olgan edilar. Bunday tizimning yaqool misolini <<Tanshu>> da Tun yabg'u-xoqon faoliyatiga oid keltirilgan <<G'arbiy o'lkalar hukmdorlariga eltabar unvonini berdi hamda nazorat qilish va soliqlar yig'inini tekshirib turish uchun har biriga alohida tudun yubordi>> tarzidagi ma'lumotlarda ko'zga ko'rinadi>>9.

Xoqonlikning vassallar bilan munosabatlari masalasida yana bir masalaga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bu boradagi G'. Boboyorovning fikrlariga nazar solsak. Ma'lumki, G'arbiy turk xoqonlari tomonidan voha hukmdorliklari boshqaruvchilariga turkiy *eltabar* unvoni berilardi. Bu esa xoqonlarning ularni o'z vassali deb hisoblashlarini ko'rsatardi. Jumladan, mahalliy sulolalarning o'z boshqaruv tizimiga xos an'anaviy unvonlarning ishlatilishiga xoqonlar tomonidan hech qanday etiroz bildirilmagan shekilli, Farg'ona va Samarqandda *ixshid*, Keshda *ixrid*, Ustrushonada *afshin*, Buxoro va Chag'oniyonda *xudot*, Xorazm, Termiz va Xuttalonda *shoh*, Marvda *marzbon* kabi aksariyati sharqiy eroniy tillarga xos unvonlarning qo'llanishida davom etgani ko'zga tashlanadi. Ushbu hukmdorliklarning bir qanchasi boshqaruvni bevosita qo'lga olib, o'z sulolasiga asos solgan xoqonlik bilan aloqador bazi turkiy sulola vakillari ham mazkur unvonlarni o'zlashtirganlar. Shuningdek, Farg'onadagi turkiy sulola vakillari *cho'r*, *tarxon* kabi xoqonlikka xos unvonlarni qo'llash bilan birgalikda mahalliy *ixshid* unvonini o'zlashtirgan bo'lsa kerak, o'sha davr arab-fors manbalarida Ixshidiylar xonadoni vodiydagi bosh sulola sifatida qayd etiladi.

G'. Boboyorov G'arbiy Turk xoqonligi o'z vassallari bo'lmish voha hukmdorliklarini boshqarishda quyidagi usullardan foydalanganligini e'tirof etadi:

1) **Bevosita.** Vassallar boshqaruvi nazoratiga shahzoda, ya'ni, *teginlarning yuborilishi*. Bu usul ko'proq ilk davrlariga xos bo'lib, vassallarning barchasiga ham bu usul joriy etilmagan. Asosan, strategik jihatdan muhim vohalar boshqaruvida o'zgarish qilishga urinib ko'rilgan va mahalliy hukmdor o'rnini Ashina xonadoni vakili egallagan. Shuningdek, Choch, Farg'ona va Kobulistonda boshqaruv Ashina xonadoni vakillariga o'tgan.

2) **Bilvosita.** Voha hukmdorligining mahalliy boshqaruvchisi sulolasi ustidan nazorat qilish - mahalliy hukmdorga *eltabar unvonini berish* va *tudun tayinlash*. Bu usul keng yoyilgan bo'lib, barcha voha hukmdorliklariga joriy etilgan.

G'. Boboyorov yuqoridagi usullar har doim ham kutilganidek natija bermaganligiga ishora qilib, xoqonlik vassallar boshqaruvida quyidagi *vositalardan* ham foydalanganligini ta'kidlab o'tadi:

1) Nisbatan kuchliroq voha hukmdorliklari bilan nikoh munosabatlarini yo'lga qo'yish - vassal hukmdorni kuyov qilish, ya'ni „ko'ragonlik tizimi“;

2) Strategik ahamiyatga ega joylarda qo'shin saqlash va garnizon qurish;

3) Nisbatan kichikroq voha hukmdorliklari boshqaruviga xoqonlikning siyosiy hayotida o'z o'rniga ega bo'lgan biror turkiy qabila yoki urug' vakillarini tayinlash;

4) Xoqonlikning asoschisi bo'lgan Ashina qabilasi yoki unga ittifoqdosh qabila va urug'lar vakillarni vassal hududlarga noib sifatida tayinlash.

9 Skaff K. J. Western Turk Rule... – P. 366.

Xullas, Gʻarbiy Turk xoqonligi tomonidan vassallar boshqaruvida foydalanilgan usul va vositalar davr taqozosiga koʻra, mavjud shart-sharoitlar, ehtiyojlar va oʻzaro manfaatdorlik asosida yuzaga kelgan deb hisoblashimiz mumkin. Gʻarbiy xoqonlik vassallar boshqaruvida oʻzidan avval faoliyat yuritgan Hun, Juan-juan, Eftallar kabi koʻchmanchi asosli davlatlar tajribasiga tayangan. Bu borada oʻzining ijtimoiy-siyosiy xarakteridan kelib chiqqan holda, ayrim vositalarni ishlab chiqib, maʼlum oʻzgartirishlar va yangiliklar joriy etgan.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. История ат-Табари... - С. 225.
2. Согдийские документы... II. - С. 80-83.
3. Бичурин Н. Я. Собрание сведений... I. - С. 229.
4. Феофилакт Симокатта. История... - С. 624
5. Комар А. Наследие тюркских каганатов... - С. 100-101.
6. Зиё А. Узбек давлатчилиги тарихи... - Б. 81
7. Равшанов П. Кашкадарё тарихи. - Т.: Фан,1995. - Б. 201.
8. Ғ. Бобоёров. „ Ғарбий Турк хоқонлигининг давлат тузуми “ / - Т.: Yangi nashr, 2018.
9. Erkoç N. İ. Eski Türklerde Devlet Teşkilatı... - S. 226.
10. Skaff K. J. Western Turk Rule... - P. 366.